

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 04 | pp. 88-97 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

FOYDA SOLIG'I: XORIJ TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI



Axrorov Zarif Oripovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Samarqand filiali dotsenti

e-mail: z.akhroroff@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada foyda solig'i iqtisodiyotni tartibga solishdagi asosiy soliq turi sifatida investitsiyalarni jalb qilishda muhim rol o'ynashi ta'kidlangan. Ishda rivojlangan mamlakatlarning foyda solig'i bo'yicha holat tahlili amalga oshirilgan, AQSH, Yaponiya, Xitoy kabi mamlakatlarning foydani soliqqa tortish borasidagi tajribalari yoritilgan va ulardan mamlakatimiz soliq tizimida qo'llash bo'yicha xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: foyda, foyni soliqqa tortish, foyda solig'i, korporativ soliq.

Аннотация. В статье подчеркивается, что важную роль в привлечении инвестиций играет налог на прибыль как основной вид налога регулирования экономики. В работе проведен анализ состояния налога на прибыль развитых стран, освещен опыт таких стран, как США, Япония, Китай в части налогообложения прибыли, на основе которого сформированы выводы и предложения, которые следует применяться в налоговой системе нашей страны.

Ключевые слова: прибыль, налогообложение прибыли, налог на прибыль, корпоративный налог.

Abstract. The article emphasizes that income tax plays an important role in attracting investment as the main type of tax regulating the economy. The work analyzes the state of income tax in developed countries, highlights the experience of countries such as the USA, Japan, China in terms of income taxation, on the basis of which conclusions and proposals are drawn up that should be applied in the tax system of our country.

Key words: profit, profit taxation, income tax, corporate tax.

1. Kirish

Foydani soliqqa tortishni isloh qilishda foyda solig'ini boshqa soliq turlari bilan bevosita bog'liqligini qay darajada ekanligini yaqqolroq ko'rishga, istiqbolda qaysi soliq turlarini o'zgartirish lozimligi va bu borada qilinadigan islohotlar to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasidan ayon bo'lishicha, foyda solig'ini bilvosita soliqlarning fiskal ustunligiga ega bo'lmasligi iqtisodiyotning rivojlanganligidan dalolat

beradi. YA'ni foyda solig'i bazasining kengayib borishi (faqat foyda solig'i to'lovchi korxonalar sonining oshishi va ularni barqaror faoliyat yuritishi asosida) ijobiy jarayon sifatida baholanadi. Foyda solig'ining iqtisodiyotni tartibga solishdagi o'rnini aniqlash uchun, eng avvalo, ushbu soliq yukini baholash va uni rivojlangan davlatlarning soliq yuki bilan taqqoslash lozim. Buning sababi aksariyat rivojlangan mamlakatlarda foyda solig'i to'lovining absolyut miqdori uning to'lovchilari tomonidan olinayotgan foydaning 35-60% atrofida saqlanib kelinayotganligi bo'lib qolmoqda. Ammo bu nisbiy ko'rsatkich hozirda sof foydaning necha foizini tashkil etib kelinayotganligi mutasaddi tashkilotlar va foyda solig'i to'lovchilari tomonidan tahlil etib kelinayotganligi bu sohada foyda solig'ini korxonalarining iqtisodiy o'sishiga ta'sirini belgilab olishga to'siq bo'lmoqda.

2. Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Aynan soliqlar orqali ham iqtisodiy o'sishga, ham pasayishga ta'sir etish mumkin. Bir qator olimlar investitsiyalarni jalb qilishga to'sqinlik qilmaydigan va iqtisodiy o'sishini ta'minlaydigan soliq tizimini ishlab chiqishni ta'kidlaydilar [1]. Agarda, soliq solinadigan obyektдан qilingan investitsiya to'liq qoplangan bo'lsa, bu soliq tizimi investitsiyalarni jalb qilishni buzmagani bo'ladi [2-3].

Investorlar maksimal foyda olish maqsadida soliq qonunchiligini chetlab o'tishga harakat qilishadi. De Vito firmalarning investitsion xarajatlarini chegirib tashlanishi natijasida kelib chiqadigan ta'sirlarni yumshatish bo'yicha soliqlarni to'lash holatlarini ko'rib chiqqan [4].

Hisob-kitoblarga ko'ra, haqiqatdan ham soliqlar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar harakatiga ta'sir ko'rsatadi. Soliq stavkasining 1 foizga o'sishi yoki pasayishi yillik foyda darajasining sezilarli o'zgarishi aniqlangan [5].

CH.M. Tiboning fikricha, soliq imtiyozlarini kiritish hisobiga soliq tushumlarini kamaytirish jamiyatga tovarlarni taqdim etishda xavflar tug'dirishi mumkin [6]. Shu boisdan soliq siyosati jamiyatga farovonligiga xizmat qilishi hamda budjet tushumlarini kamaytirmasligiga xizmat qilmog'i lozim.

Ijtimoiy omili esa, yangi ish joylarini tashkil qilish orqali bandlikni ta'minlash, aholining daromadini oshirish yo'li bilan uning farovonligini oshirishni nazarda tutadi. T.Eycher soliqlarning past stavkalarini joriy qilish to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish borasidagi davlat siyosatini kuchaytirganligini ta'kidlaydi [7].

S.Djankov va boshqalarning ta'kidlashicha, korporativ soliqning samarali stavkasi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va tadbirkorlik faoliyatining umumiy hajmiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Korporativ soliq stavkalari o'sish bilan salbiy bog'liq va norasmiy iqtisodiyot hajmi bilan ijobiy bog'liqdir. Korporativ soliq stavkalarining ijobiy natijalari uchun boshqa soliq stavkalari, soliq ma'muriyatchiligi sifati, mulkiy huquqlar xavfsizligi, iqtisodiy rivojlanish darajasi, inflyatsiyani tartibga solish va savdoga ochiqlik uchun nazoratni kiritish uchun muhimdir [8].

C.Chamley fikricha, kapitalga optimal soliq solish nazariyalaridan kelib chiqib, soliq siyosatini ishlab chiqishda kapitalga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadigan, jumladan, kapital o'sishiga, dividend va foizli daromadlarga soliqlardan qochish lozim [9].

D.Abdullayev fikricha, foyda solig'i budjet daromadlarini shakllantiradigan asosiy soliq bo'lishi bilan birga mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligini ta'minlashning

samarali vositasi hisoblanib, ushbu soliq past soliq stavkasi orqali to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni, eksportni va iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarini rag'batlantirish asosida milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [10].

3. Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida foyda solig'i orqali iqtisodiyotni tartibga solishga oid xorij tajribalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'rganildi. Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy, empirik kuzatuv usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda qo'llanilgan xorijiy va milliy rasmiy manbalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

4. Tahlil va natijalar

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, mamlakatda foyda solig'i stavkasining tiniq va ijobiy tomonga o'zgarib borishi uchun qulay moliyaviy muhitni yaratmasdan va xorijiy tajribalarni milliy iqtisodiyotga faol qo'llamay turib, bozor iqtisodiyotiga muvaffaqiyatli integratsiyalasha olmaydi. Shu bois hozirgi kunga qadar davlat ixtiyoridagi mulkni davlat tasaffuridan chiqarish va xususiylashtirish, mamlakatimiz moliya bozorini dunyo andozalari doirasida shakllantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish sari izchil yo'l tutishi istiqbolda mamlakatda yuzlab korxonalarining qad ko'tarishi, portfel investitsiyalarni aynan foyda solig'ini to'lovchi korxonalariga ko'proq jalb etish jarayonini faollashtirish uchun real imkoniyatlarni mavjud soliq qonunchiligi hamda kelgusidagi rivojlantirish dastur va konsepsiyalarga tayangan holda shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Hozirgi kunda xorijiy investitsiyalarning aksariyati eksportga mo'ljallangan mahsulotlar (tovarlar) ishlab chiqaruvchi korxonalariga jalb etilishi aynan shunday korxonalarda foyda miqdorini maksimallashtirishga va unga binoan budjet daromadlariga ko'proq foyda solig'ini tushirilishiga imkoniyat yaratilishi mumkin bo'ladi. Faqat shunday sharoitning yaratilishi negizida foyda solig'i stavkasini optimal chegaralarda pasaytirib borishga erishish mumkin bo'ladi.

Shu o'rinda aytish joizki, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda investitsiyalarni jalb qilish, ulardan olinadigan foydani kafolatlash, shuningdek soliqqa tortish borasida munosabatlar, ularda amal qilib kelayotgan qonunlarda aniq ko'rsatib o'tilgan. Ta'kidlash joizki, ushbu mamlakatlarda nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, siyosiy va boshqa shart-sharoitlarning ham mustahkam asosi yaratib berilgan.

Bugungi kunda soliq tizimida olib borilayotgan islohotlar mamlakat soliq siyosatini takomillashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy sohani rivojlantirish va soliq yukini pasaytirishga qaratilayotgan bir sharoitda bizning nazarimizda xorijiy mamlakatlarning soliq ma'murchiligi sohasida ilg'or tajribalarini o'rganmasdan turib mamlakat soliq tizimini isloh qilish, bu borada qonunchilik normalarini takomillashtirish murakkab jarayon sanaladi. Shu bilan birga, xalqaro darajada mamlakatdagi fiskal siyosatning asosiy o'tkazuvchisi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga budjet tasdiqlangandan keyin budjet sarf-xarajatlarini kamaytirish bo'yicha yetarlicha kafolat berilgan deyish muki. Bu esa foyda solig'i stavkasini yuqori darajada saqlab qolishga yoki foyda solig'ini boshqa majburiyatlar bilan birlashtirish orqali uni budjet daromadlaridagi hissasini oshirishga sabab bo'lmoqda.

Ta'kidlash joizki, turli soliqlarni birlashtirishdan maqsad foyda solig'i to'lovchilarini moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ularda yangi ish o'rinlarini yaratish va ishchi-xizmatchilarga yuqori ish haqini berishdan iborat. Yuqori ish haqi korxonalar xarajatlarini oshishiga, bu esa bir vaqtning o'zida korxonalar foydasini kamayishiga sabab bo'lishi mumkin. Shunga qaramay korxonalar xorij tajribasidan kelib chiqib yuqori miqdorda foyda olish orqali foyda solig'i to'lovini oshirishga intilsa, unda korxonalar sifatli va arzon mahsulotlarni eksport qilish orqali mahsulot aylanmasini 30-50 foizga qadar oshirishi lozim bo'ladi.

Faqat mahsulot aylanmasini oshirish orqali har bir mahsulotga qilingan xarajatlarni pasaytirishga, ko'proq foyda olishga, yangi ish o'rinlarini yaratishga erishish mumkin bo'ladi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, korxonalar o'zlariga yuklatilgan vazifa va majburiyatlaridan kelib chiqib, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini oshirishda yana bir masalaga o'z diqqatini qaratishi va xorij tajribasiga tayangan holda o'z mahsulotlari rivojlangan mamlakatlarga chiqarish bilan cheklanmay, korxonalar filiallarini ko'proq samara keltiruvchi tumanlarga, viloyatlarga, qolaversa arzon ishchi kuchiga ega bo'lgan mamlakatlarda tashkil etish maqsadga muvofiq. Markaziy Osiyo bunday davlat sirasiga Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston va Afg'onistonni kiritish mumkin. Ammo hozirgi kunga qadar sanoat mahsulotlari va tovarlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarimizni ushbu davlatlarda filiallari haddan tashqari kam.

Faqat ishchi kuchi arzon bo'lgan davlatlarda ishlab chiqarish korxonalarini ishga tushirish, ularda sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish orqali ishlab sanoat korxonalarini foydasini oshirishga erisha olamiz.


Shuningdek, soliq va amortizatsiya qonunchiligini takomillashtirish orqali ham tadbirkorlar yuqori foyda olish imkoniyatiga ega bo'lishlari mumkin. Bunday tadbirni amalga oshirishda korxonalar avvalo innovatsion jarayonlarni jadal oshirishlariga to'g'ri keladi. Umuman olganda tadbirkorlikka moyillik innovatsion jihatdan, shu bilan birga foydani soliqqa tortish darajasi bilan tartibga solinishi zarur bo'ladi. Mazkur fikrni tasdiqlovchi venger iqtisodchisi B.Santoning quyidagi fikrini keltirish lozim: agar foyda solig'i hajmi 0 va 25% o'rtasida bo'lsa, tadbirkorlikka moyillik darrov pasayadi, agar soliq foydani 50%ga yetsa, unda innovatsiyalarga moyillik va u bilan bog'liq kapital qo'yilmalar amaliy jihatdan yo'qoladi [11].

Davlat tomonidan tartibga solish instrumentining muhimligi amaliy jihatdan sanoati rivojlangan mamlakatlarda talqin qilinadi va ularning har biri o'zining foydani soliqqa tortishning optimal modelini topishga harakat qiladi. Shu boisdan, rivojlangan mamlakatlarda foydani soliqqa tortish o'ziga xos xususiyatga ega.

Iqtisodiyotni soliqlar vositasida boshqarishda ilg'or xorij tajribalarni o'rganish ham katta ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlarda foydani soliqqa tortish borasida fikrlar asosan korporatsiya solig'i doirasida kechadi. Ushbu mamlakatlarda korporatsiya solig'i asosiy soliq turi sifatida e'tirof etib kelinadi.

So'nggi yigirma yil ichida korporativ foyda solig'ining qonunchilikda o'rnatilgan standart o'rtacha stavkalari pasaygan, ammo mamlakatlar o'rtasidagi sezilarli farqlar saqlanib qolgan. Barcha mamlakatlar uchun korporativ foydani o'rtacha birlashtirilgan standart soliq stavkalari (markaziy va mahalliy hukumatlar) 2000 yildagi 28,2 foizdan 2023 yilda 21,1 foizga kamaygan. OECDning 2023 yilgi statistik ma'lumotlarda qamrab olingan

141 ta mamlakatlardan 27 tasida korporativ soliq stavkalari 2023 yilda 30% ga teng yoki undan yuqori bo'lgan, Kolumbiya va Maltada esa eng yuqori korporativ soliq stavkasi 35,0% bo'lgan, 12 ta mamlakatda korporativ soliq solish rejimi mavjud bo'lmagan yoki nolli stavkada foyda solig'i bo'lgan. Ikki mamlakatlar, Barbados (5,5%) va Vengriya (9%) ijobiy korporativ soliq stavkalari 10% dan kam bo'lgan. Biroq, Vengriyada ham korporativ foydadan baza sifatida foydalanmaydigan mahalliy biznes soliqlari mavjud. Bu Vengriya qonunchiligida belgilangan soliq stavkasiga kiritilmagan, ammo bu Vengriyadagi korxonalar qonunda belgilangan soliq stavkasidan ko'ra yuqoriroq soliqqa tortilishini anglatadi. 2000 va 2023 yillardagi korporativ soliq stavkalari solishtirilganda, 2023 yilda 111 ta mamlakatlarda korporativ soliq stavkalari pastroq, 15 ta mamlakatlarda bir xil darajada, 15 ta mamlakatda esa yuqoriroq soliq stavkalari bo'lgan [12]. 2000 yildan beri OECDga a'zo davlatlarda va yurisdiksiyalarning uchta mintaqaviy guruhida korporativ foyda solig'ining o'rtacha stavkalarida pasayish tendensiyalari kuzatilgan (1-rasm). Soliq stavklaridagi eng sezilarli pasayish OECDga a'zo davlatlar guruhiga (2000 yildagi 32,3 foizdan 2023 yilda 23,6 foizgacha pasaygan) to'g'ri keladi.



1-rasm. Mintaqalar bo'yicha korporativ soliqning o'rtacha stavkalarini o'zgarishi [12], foizda

Qonunda belgilangan daromad solig'ining standart stavkalari mamlakatlardagi korporativ soliq stavkasini ko'rsatadi. Biroq, yurisdiksiyalarda bir nechta soliq stavkalari bo'lishi mumkin, amaldagi soliq stavkasi korporatsiyaning xususiyatlari va daromadiga bog'liqdir: ba'zi yurisdiksiyalarda ma'lum korporatsiyalar yoki daromad turlari uchun pastroq stavkalar bilan imtiyozli soliq rejimlari mavjud; ayrim yurisdiksiyalar taqsimlanmagan va taqsimlangan daromadlarga turli stavkalarda soliq soladi; ba'zi yurisdiksiyalar muayyan tarmoqlar uchun turli xil soliq stavkalarini belgilaydi; ba'zi yurisdiksiyalarda progressiv soliq stavkalari yoki kichik va o'rta kompaniyalar uchun alohida tartib mavjud; ayrim yurisdiksiyalarda norezident kompaniyalar uchun rezident

kompaniyalarga nisbatan har xil soliq stavkalari amal qiladi; ayrim yurisdiksiyalar maxsus yoki belgilangan iqtisodiy zonalarda pastroq soliq stavkalarini o'rnatadilar.

AQShda soliqqa tortish davlat budjetining nafaqat katta qismini tashkil etuvchi manba sifatida e'tirof etilib kelinadi, balki shu bilan birga u kichik biznesga davlat ta'sirini o'tkazishdagi birdan-bir muhim richag sifatida ham foydalaniladi.

AQShda o'tgan asrning 80-yillarida o'tkazilgan islohotlarga binoan soddalashtirilgan soliq tizimi joriy etilgan bo'lsada, u hozirgi kunga qadar murakkab soliq tizimi bo'lib kelmoqda. Hatto A.Eynshteyn ham boshqa birovning yordamisiz soliq to'lov deklaratsiyasini to'ldira olishga qurbi yetmagan [13].

Faqat ishchi kuchi arzon bo'lgan davlatlarda ishlab chiqarish korxonalarini ishga tushirish, ularda sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish orqali sanoat korxonalarini foydasini oshirishga erisha olamiz.

AQShda biznesni boshlash va yangi innovatsion g'oyalarni tadbiq etishda (startaplarni amalga oshirishda) yangi investitsiyalarga biznes rag'batlantirishlarni hisobga olish zarur. Ko'pgina mamlakatlarda korxonalariga kapital xarajatlarni darhol foyda hisobidan chegirib tashlashga ruxsat berilmagan. Buning o'rniga bir necha yil davomida bu xarajatlarni kamaytira borib, yangi investitsiyalarga soliq yukini oshirishlari lozim bo'ladi. Buni korxonalarining amal qilish muddati davomida chegirib tashlashi mumkin bo'lgan joriy qiymatining foizini hisoblash yo'li bilan o'lchash mumkin. AQShda iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi va yangi biznes sarmoyasi uchun rag'batlantiruvchi soliq tizimi amal qiladi.

Yaponiyaning barcha soliq daromadlarining 64%dan ortig'ini hukumatni moliyaviy qudratini ifodalovchi federal soliqlar tashkil etadi. O'zbekiston soliq tizimida egri soliqlarning ulushi ko'proq bo'lgan holda, Yaponiya davlatida daromadning ko'proq qismini to'g'ri soliqlar, ya'ni korporatsiyalarning foyda solig'i va jismoniy shaxslarning daromad soliqlari tashkil qiladi. Korporatsiya foydasidan olinadigan soliqning YAIMdagi ulushi qariyb 4 foizni tashkil etadi [14].

Korporativ soliq stavkasi bo'yicha daromadlar Yaponiya hukumati uchun muhim daromad manbai hisoblanadi. Soliq masalalari bo'yicha yaponiyalik tadqiqotchilar odatda korporativ soliq yukini o'z zimmasiga oladigan uch guruh subyektlarini ajratadilar: korporatsiyalarning o'zlari, korporatsiyalarga kapital va tashkiliy ishlar bo'yicha ko'nimlar beradigan hamda korporatsiyalar tomonidan ishlab chiqariladigan va ko'rsatiladigan xizmatlar tovarlar va xizmatlar iste'molchilari. 2021 yilga kelib Yaponiyada korporativ soliqning eng yuqori darajasi 52,4 foizni va eng past darajasi 30,62 foizni tashkil qiladi [15]. Yaponiyada korporativ daromad solig'i stavkasi Tokioda joylashgan, yiliga 8 million yapon iyenasi bilan yuqori soliqqa tortiladigan daromadga ega kompaniyalar uchun eng yuqori korporativ soliq stavkasi qo'llaniladi.

Xitoyda foydani soliqqa tortish «Korxonalar daromad solig'i to'g'risida»gi qonun asosida tartibga solinib, bu soliq turi korxonalar daromad solig'i deb nomlanadi. Hisoblanish tartibi an'anaviy tartibda, ya'ni daromaddan xarajatlar va zararlar chegirilgan holda aniqlanadi. Standart soliq stavkasi 25 foizni tashkil etsa, past rentabelli korxonalar uchun 2,5-10 foiz atrofida, yangi va yuqori texnologiya kiritgan korxonalar uchun 15 foiz etib belgilangan [16]. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Xitoyda ular rivojlanishning asosi sifatida ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish va amaliyotga tadbiq etilishini

ta'minlash, innovatsion loyihalarni ko'paytirishga alohida diqqat qaratilishiga yana bir bor ishoch hosil qilish mumkin.

Korxonalarda innovatsion faoliyatni soliq imtiyozlarini berish orqali qo'llab-quvvatlashning Xitoy tajribasida, mavjud soliq qonunchiligiga muvofiq, korxonalar ilmiy faoliyat bilan shug'ullansalar, ularga foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar taqdim etiladi. Ushbu imtiyoz va preferensiyaga ega bo'lish uchun korxonalar yuqori va yangi texnologiya kiritgan korxonalar maqomiga ega bo'lishi lozim. Xitoyda «Korxonalardan olinadigan foyda solig'i to'g'risida»gi qonuning 28 moddasiga binoan, yuqori va yangi texnologiyali korxonalar foyda solig'i 15 foiz miqdorida belgilangan [17].

Ta'kidlash joizki, yuqoridagi qonunda xarajatlar va ushlanmalarning aniq ro'yxati belgilab qo'yilgan. O'zbekiston soliq tizimi uchun daromadlardan chegiriladigan xarajatlar ro'yxatini va qayta qo'shiladigan xarajatlarning chegarasini aniq belgilab qo'yish turli tushunmovchiliklarning oldini olgan bo'lar edi.

Taraqqiy etgan mamlakatlardagi kabi bizda ham foyda solig'i stavkalari ma'lum bir vaqt ichida o'zgartirilib turilishi (ayrim paytlarda foyda solig'i stavkasini pasaytirish, ayrim hollarda oshirish va soliq imtiyozlarini taqdim etish) soliq bazasini aniqlashga, uni soliq stavkalariga nisbatan maqbullashtirishga jiddiy ta'sir etadi. Natijada soliq tushumini ko'zlangan miqdorda budget daromadlariga tushishi ta'minlanmaydi (tashqi ko'rinishda budget daromadlarida foyda solig'i tushumini oshishi kuzatilsada). Ko'zlangan foyda solig'ini budget daromadlariga tushirilmaligiga bir necha omillar ta'sir etish ehtimoli mavjud omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- foyda solig'i imtiyozini asoslanmagan holda belgilab qo'yilishi va korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun taqdim etilishi;
- inflyatsiya darajasining o'zgarib turishi. Natijada inflyatsion soliqlarni budget daromadlariga qabul qilinishi;
- foyda solig'i to'lovchi korxonalariga investitsiyalarni jalb etilishi (aksariyat hollarda bunday korxonalarda sinergetik samarani qo'lga kiritilmaligi, ularda eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarilmaligi yoki jalb etilgan miqdorda ishlab chiqarilmaligi);
- innovatsion mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarni son jihatdan oshishi bevosita foyda solig'i tushumlarini oshishiga xizmat qilishi;
- amaldagi korxonalaridagi foyda solig'i to'lovlarini yetarli miqdorda kelib tushmaligi, soliq qarzdorligining oshib ketishi va bunday holatlardan kelib chiqib jarimalar undirilishining kuzatilishi va h.k.

Buyuk Britaniya soliq tizimida to'g'ri soliqlar yuqori salmoqni egallab, budget daromadida to'g'ri soliqlar ulushi 70%ni tashkil etadi. Ushbu daromadlar tarkibida foydani soliqqa tortish hissasi yuqori ulushni egallaydi. O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich 30%ni tashkil etadi va buning tarkibida foyda solig'i pastdir.

Buyuk Britaniyaning biznes yuritish uchun qulay muhitga ega ekanligini va korporativ soliq stavkasining oxirgi 5 yildan beri 19% ekanligini alohida ta'kidlash lozim [18]. Korporatsion soliq kompaniya daromadlaridan qonun yo'li bilan ruxsat berilgan xarajatlarni ayirib tashlangandan keyin ushlanadi. Ta'kidlash joizki, ilmiy tekshirish xarajatlari to'liq kompaniyaning yalpi daromadidan chiqarib tashlanadi. Shuningdek, muhtojlarga qilinadigan xayr-ehson chegirilishi va bu chegirma oddiy aksiyalar bo'yicha beriladigan dividendlar summasidan ortiq bo'lmaligi aniq belgilab qo'yilgan [19].

Shu bois foydani soliqqa tortishni yuqorida qayd etilgan asosda, ya'ni xorijiy davlatlar tajribalarini o'rgangan holda hal etish bilan bog'liq masalalar bo'yicha quyidagi xulosalarni chiqarishni lozim deb topdik:

- jahon amaliyotida xorijiy davlatlar soliq tizimini turkumlashtirishga turli xil yondoshuvlar qo'llanilmoqda va bunga ko'ra soliq tizimi modellari, ularning tegishli guruhiga taalluqli davlatlar soliq tizimining xususiyatlari hamda rivojlanish tendensiyalari mavjud;

- hozirgi sharoitda mamlakatimizda nafaqat ichki xususiyatlarni hisbga olgan holda, balki jahon bozorida raqobatning kuchayishini hisobga olgan holda mamlakat soliq siyosatini takomillashtirish maqsadga muvofiq;

- foydani soliqqa tortishda xorijiy davlatlar soliq tizimi rivojlanishi uchun umumiy bo'lgan jihatlar quyidagilardan iborat: a) optimal soliq siyosati yuritish zaruriyati kuchayishi; b) foyda solig'ining korxonalar iqtisodiy o'sish va mamlakat rivojida hissi muhimligi; v) korporativ soliq stavkasining pastligi soliq yukining past emasligini anglatishi; g) korporativ soliqning majburiylik va adolatlilik tamoyili ijrosi ahamiyatining o'sishi; d) korxonalarda innovatsion ishlarni yaratish va ularni tijoratlashtirishni jadallashtirish bilan bog'liq moliyaviy munosabatlarning dolzarbligi;

- foydani soliqqa tortish borasida jahon miqyosida 15 foizdan pastga tushirmaslikka harakatning mavjudligi;

- soliq tizimida chegiriladigan xarajatlar ro'yxatini va qayta qo'shiladigan xarajatlarning chegarasini aniq belgilab qo'yish zaruriyati.

- jahon miqyosida kuzatilayotgan soliq islohotlarida asosiy e'tibor innovatsion faoliyatni soliqlar orqali rag'batlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini takomillashtirib borishni ham taqozo etadi. Bu esa innovatsion faoliyatga nisbatan foyda solig'i stavkasini pasaytirishni yoki unga nisbatan istisno tariqasida imtiyozlarni qo'llashni talab etadi.

Innovatsion jarayonlarni keng qo'llash orqali foyda oluvchi korxonalardan foyda solig'ini undirishda yuqorida e'tirof etilgan innovatsiyada qo'llanilib kelingan tartiblardan tajriba sifatida foydalanish, so'ng esa uni keng yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Unda quyidagi rag'batlantiruvchi mexanizmlarni amal qilish uchun sharoit yaratish talab etiladi:

- innovatsion jarayonlarni keng qo'llash uchun sharoit yaratish;
- imtiyozli soliq stavkalarini qo'llash;
- soliq to'lov majburiyatlarini amalga oshirish maqsadida imtiyozli tartiblardan foydalanish (ya'ni hisobotlarning soddalashtirilgan tartibini qo'llash);

- soliqqa tortiladigan foydadan chegirmalar qilishi uchun huquqiy tartiblarini joriy etish;

- foyda solig'i solish bazasini hisoblashda amortizatsiyalarni rag'batlantirishni Shvetsiyada amal qiluvchi rag'batlantirish usullaridan foydalanishga imkoniyat yaratish va h.k.

Yuridik shaxs soliq to'lovchi sifatida bu jarayonda ishtirok etishi, ular olgan foydasining muayyan miqdorda soliqqa tortilishi soliqqa tortish tamoyillariga to'liq mos keladi. Shu bois, mamlakatimiz soliq tizimini xalqaro soliqqa tortish darajasiga chiqarish uchun ularning tajribalarini e'tiborga olish maqsadga muvofiq. Ma'lumki, ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda korporativ soliq amal qiladi. Shu bois,

amaldagi foyda solig'i korporatsiya solig'iga o'zgartirilishi va ushbu soliq mexanizmida muayyan o'zgarishlarni amalga oshirish lozim.

5. Xulosa va takliflar

Xorijiy davlatlar soliq tizimini turkumlashtirishga turli xil yondoshuvlar qo'llanilishi va bunga ko'ra soliq tizimi modellari, ularning tegishli guruhiga taalluqli davlatlar soliq tizimining xususiyatlari hamda rivojlanishni o'rganish doimiy yo'lga qo'yilishi orqali bir qator natijalarga erishiladi.

Birinchi, foyda solig'i to'lovchi xo'jalik subyektlarining investitsion mablag'larini rivojlanayotgan xorijiy davlatlarida filiallarini ochishga bo'lgan munosabatlari barqaror bo'lgan holda budjet daromadlariga foyda solig'i tushum oqimlarini oshirilishiga zamin yaratilgan bo'lar edi.

Ikkinchi, yashirin iqtisodiyotga chek qo'yilishiga zamin yaratilgan holda budjet daromadlariga foyda solig'i tushumini o'rta hisobda 20-25%ga oshirilishiga zamin yaratiladi.

Uchinchi, korxonalarining foyda solig'i bo'yicha budjet qarzdorligini o'z vaqtida va to'liq undirishga erishgan holda, korxonalardan qo'shimcha xarajatlarni qisqarishi yoki qo'shimcha ustamalar to'lanishining shuningdek samara keltirmaydigan soliq imtiyozlarini cheklashga erishiladi.

To'rtinchi, foyda solig'i to'lovini budjetga o'z vaqtida va uzluksiz mablag'lar tushishiga va boqimandalar sonini keskin kamayishi ta'minlanadi.

Beshinchi, budjet daromadlariga tushishi mumkin bo'lgan majburiy bo'lgan tushumlar korxonalarda noqonuniy aylanishini jilovlashga erishiladi.

Oltinchi, ishlab chiqarish xarajatlariga kiritiladigan xarajatlar tarkibi ixchamlashtirilsa, unda soliq solish bazasini oshishiga va unga ko'ra budjet daromadlariga foyda solig'i tushumini 6%ga oshirishga erishilishiga zamin yaratiladi.

Yettinchi, soliq qarzdorliklari kamayishiga va sof foydaning ko'payishiga zamin yaratilgan holda korxonani moliyaviy sog'lomlashtirilishiga erishiladi.

Shu asosda ushbu xulosalar va takliflar foyda solig'i orqali ishlab chiqarishni rag'batlantirish, korxonalarni tadbirkorlik faolligini oshirish, ularning foydalaridan to'liq soliq undirish, bevosita soliqqa tortishni yaxshilash, foyda solig'ini budjet daromadlariga barqaror tushishini ta'minlash hamda foyda solig'i hisobi va budjetga undirishni xorijiy tajribalarga asoslangan holda takomillashtirishga hamda korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirishga erishgan bo'lar edik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Diamond P.A., Mirrlees J.A. Optimal taxation and public production I: Production efficiency. //The American economic review. 1971. T.61. №1. – pp. 8-27.
2. Sandmo A. Investment incentives and corporate income tax. //Journal of Political Economy. 1974. T.82. №2, Part 1. – p. 287-302
3. Broadway R., Bruce N. A general proposition on design of a neutral business tax. //Journal of Public Economics. 1984. T.24. №2. – pp. 231-239.
4. De Vito A., Jacob M., Muller M. Avoiding taxes to fix the tax code. Available at SSRN 3364387. – 2019.
5. Mooij R.A., Ederveen S. Corporate tax elasticities: a reader's guide to empirical

findings. //Oxford review of economic policy. 2008. T.24. №4. – pp. 680-697.

6. Tiebout C.M. A pure theory of local expenditures. //Journal of political economy. 1956. T.64. №5. – pp. 416-424.

7. Eicher, T. S., Helfman, L., & Lenkoski, A. (2012). Robust FDI determinants: Bayesian model averaging in the presence of selection bias. *Journal of Macroeconomics*, 34(3), 637-651.

8. Djankov, S., Ganser, T., McLiesh, C., Ramalho, R., & Shleifer, A. (2010). The effect of corporate taxes on investment and entrepreneurship. *American Economic Journal: Macroeconomics*, 2(3), 31-64.

9. Chamley, C. (1986). Optimal taxation of capital income in general equilibrium with infinite lives. *Econometrica: Journal of the Econometric Society*, 607-622.

10. Abdullayev, D. (2023). O'zbekistonda foyda solig'i mamuriyatchiligini takomillashtirish. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 1(6), 108-115.

11. Санто Б. Инновацион как средство экономического развития. /Пер. с.венг. общ. ред. Б.В. Сазонова. – М.: Прогресс, 1990. – С. 102

12. OECD. Corporate Tax Statistics, 2023. <https://incp.org.co/wp-content/uploads/2023/11/Corporate-Tax-Statistics-2023-OCDE.pdf>.

13. Соединенные Штаты Америки. / Отв. ред. В.Ф. Железова. – М.: Международные отношения, 1991. – С. 122.

14. Азизов О. Ривожланган мамлакатлар солиқ тизими: қиёсий таҳлил. //Иқтисод ва молия. 2016. 12-сон. 30-б.

15. Интернет ресурс: <https://tradingeconomics.com/japan/corporate-tax-rate#:~:text=Corporate%20Tax%20Rate%20in%20Japan%20is%20expected%20to%20reach%2030.86,macro%20models%20and%20analysts%20expectations>

16. Интернет ресурс: <https://iclg.com/practice-areas/corporate-tax-laws-and-regulations/china>

17. Интернет ресурс: <https://kun.uz/news/2018/06/30/innovacialar-solik-imtiezlari-orkali-kullab-kuvvatlanisga-mutoz>

18. Интернет ресурс: <https://www.gov.uk/government/publications/changes-to-corporation-tax-rates-from-1-april-2020/corporation-tax-main-rate-at-19-in-2020-and-charge-and-main-rate-for-2021>

19. Шамсутдинов Ф.Ш., Шамсутдинова Ш.Ф. Чет мамлакатлар солиқ тизими. Дарслик. – Т.: Фан ва технология, 2011. – Б. 77.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

